

**ABU ISHQQ KALOBODIY QARASHLARIDA  
TASAVVUF VA HADIS IMLALARINING  
XUSUSIYATLARI**

*Tojiddinov Abdusamad Abdulbosid o‘g‘li  
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
FEATURES OF HADITH AND SUFISM IN THE  
VIEWS OF ABU ISHAQ KALABADI*

*Tojiddinov Abdusamad Abdulbasid oglu  
Independent researcher at Bukhara State University  
ОСОБЕННОСТИ НАУК ХАДИСА И  
ТАСАВВУФА ВО ВЗГЛЯДАХ АБУ ИСХОКА  
КАЛОБАДИ*

*Тожиддинов Абдусамад Абдулбасид оглы  
Независимый исследователь Бухарского  
государственного университета*



[abdusamadgoriuz@  
gmail.com](mailto:abdusamadgoriuz@gmail.com)

ORSID: 0009-0002-  
52573997  
Tel: 904141294

**Annotatsiya:** Maqolada o‘rta asrning yirik mutasavvif olimi, tasavvuf nazariyotchisi, hadis ilmi bilimdoni Abu Ishoq Kalobodiyning serqirra qarashlaridagi tasavvuf hamda hadis ilmiga oid jihatlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga harakat qilgan. Buxoro ilm fani hadis ilmlari rivojidagi muhim hissasi, hadis va tasavvufdagi uyg‘unlilik o‘zaro aloqadorlik, bog‘liqliktomonlari mutasavvif asarlarining qiyosiy tahlili asosida keng tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** tasavvuf, hadis, ilm, amal, isnod, sanad, sahih, ma’naviy olam, ruhiy-ma’naviy yuksalish, ohod, mutovotir, hafs, qalb, inson.

**Abstract:** This article explores the multifaceted views of the prominent medieval Sufi scholar, theorist of Sufism, and hadith expert Abu Ishaq Kalabadi on the disciplines of Sufism and hadith. It highlights the distinctive characteristics of his approach to these religious sciences. Particular attention is given to the contribution of the Bukhara scholarly tradition to the development of hadith studies, as well as the harmonious integration and interconnection between hadith and Sufism. The analysis is based on a comparative study of Sufi texts.

**Keywords:** Sufism, hadith, knowledge, practice, isnad, sanad, sahih, spiritual world, spiritual and moral elevation, ahad, mutawatir, Hafs, heart, human being.

**Аннотация:** В статье анализируются многогранные взгляды выдающегося средневекового суфийского ученого, теоретика тасаввуфа и знатока хадисов Абу Исхака Калобади на науки тасаввуф и хадис. Раскрываются особенности его подхода к данным религиозным дисциплинам. Особое внимание уделяется вкладу бухарской научной школы в развитие хадисоведения, а также гармоничному сочетанию и взаимосвязи между хадисом и тасаввуфом. Анализ основан на сравнительном изучении суфийских трудов.

**Ключевые слова:** тасаввуф, хадис, знание, деяние, иснад, санад, сахих, духовный мир, духовно-нравственное возвышение, ахад, мутаватир, хафс, сердце, человек.

**Kirish.** Abu Ishoq Kalobodiuy buxorolik mashhur tasavvuf olimi, nazariyotchi mutasavvif sifatida tanilgan. Uning ikki yirik asari ilm ahli orasida yaxshi tanish Jahon tasavvufshunoslar tadqiqotlarida, tasavvuf adabiyoti bilan

shug‘ullanayotgan adiblar, faylasuflarning izlanishlarida o‘z aksini topgan. Shu ma’noda, Abu Ishoq Kalobodiyning “At-Taarruf” va “Bahrul favoid” asarlarini qiyosiy tahlil etish tasavvuf olimining tasavvuf hamda hadis ilmidagi uslubi

bilan birga qarashlarining falsafiy jihatlarini olib berishga, tasavvuf va hadis ilmlaridagi o‘ziga xos yondashuvlarini ma’naviy –axloqiy qarashlarini chuqurroq o‘rganishga yo‘l ochadi. Chunki, uning “At-Taarruf” va “Bahrul favoid” asarlari o‘z davrida va keyingi zamonlarda ham juda mashhur bo‘lgan va Sharq hamda G‘arb olimlarining e’tiborini tortib kelgan. “At-taarruf” tasavvuf tarixi, tasavvuf nazariyasiga bag‘ishlangan mukammal asar sifatida ilm ahliga yaxshi tanish. Tasavvufshunos olimlar, tasavvuf falsafasi bilan shug‘ullangan olimlar keng foydalanganlar. “Bahrul favoid” ham buxoroda hadis ilmlarining rivoji hamda ijtimoiy ma’naviy muhitni barqarorlashtirishda, axloqiy tamoyillarni hayotga joriy etishda muhim rol o‘ynagan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:** Abu Bakr Ishoq Kalobodiy ushbu mufassal yozilgan asari bilan islom olamida birinchilardan bo‘lib, o‘z davrida tasavvufning nazariy masalalarini chuqur o‘rgangan va tizimga solgan. Tasavvufni unga xos bo‘lmagan tushunchalar, rasm-rusum va boshqa turli bid’atlardan tozalashga harakat qilgan va bunga erishgan, uning “at-Taarruf” asarining so‘fiylik ilmlari bilan shug‘ullangan ko‘plab mutassavvifalar uchun dasturul-amal bo‘lgan. Shu jihatdan, tasavvufning sofligi, tasavvuf yo‘lining ma’naviyat yo‘li, axloq yo‘li ekanini, yuksalish yo‘li ekanini asoslashga islomiy xulq atvor bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilgan. Darhaqiqat, keyingi davr donishmandlari va so‘fiylari Abu Bakr Ishoq Kalobodiyning mazkur asariga juda yuqori baho bergenlar. Abu Ishoq Kalobodiy ilohiy ma’rifatni himoya qilish, yoyish va tasavvufning nazariy-ijtimoiy tomonini rivojlantirishda alohida xizmat ko‘rsatdi. Mazkur qo‘lyozma asar Markaziy Osiyodagina emas, butun islom olamida birinchi umumlashtiruvchi nazariy-tarixiy manba ekanligi umume’tirof etilgan. Unda tasavvuf tarixi, so‘fiylar hayot tarzi, mashhur so‘fiylar haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Mazkur asar, tasavvufni fan sifatida rivojlantirishdagi birinchi yozma

manbalardan deyish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Asarda Abu Bakr Ishoq Kalobodiy o‘zidan ko‘ra ko‘proq o‘sha soha buyuk allomalarining so‘zlarini, qarashlarini kelirgan. Ularning g‘oyalari, inson ma’naviy kamolotiga undovchi, yo‘naltiruvchi tamoyillarini irfoniy mavzularining mohiyati har tomonlama olib bergan. Bu qo‘lyozmaga o‘z davrida va keyingi davrlarda yetishib chiqqan tasavvuf olimlari tomonidan ko‘plab sharhlar yozilgan: Mulla Muhammad Olim Shoshiy “Sharhe Taarruf”, Alouddin Ali ibn Ismoil at-Tabriziy “Sharhul-Qodiy”, “Sharhe Abdullah ibn Muhammad al-Ansoriy al-Hiravy”, “Sharhe at-taarruf” Imom Ismoil ibn Muhammad ibn Abdulloh al-Mustamliy Buxoriy, Xoja Muhammad Porso ham bu asarga sharh yozganligi manbalarda ta’kidlanadi. Abu Bakr Ishoq Kalobodiy “At-Taarruf”ning muqaddimasida kitobning yozilish sabablariga to‘xtalib, “Shu vaziyat meni qo‘lga qalam olib, tasavvuf ahlining tariqatlarini ushbu kitob orqali ko‘rsatib berishga majbur etdi. Qalamim bilan imkonim boricha kashf etdim, zohiriyl ilm vositasi ila ishorotlarni tushunmaydiganlar va iboralarini anglamaydiganlar uchun izoh berdim”, shu bilan birga ushbu kitobga shuning uchun ham “Tasavvufni tanishtirish kitobi” deb nom qo‘ydim. Kitobni yozishdan oldin hoziq va mohir musanniflarning kitoblariga murojaat qildim va ulug‘ mashoyixlar bilan birga yashab, ular haqlarida ustozlardan so‘rab, haqiqiy ahli hollar to‘g‘risidagi hikoyalarni ham o‘qib chiqdim” - deb yozadi. Demak, tasavvufni tushunish uning asl mohiyati anglashdagi xilma-xillik, yoki adashishlar uning sofligiga zarar keltirishi mumkinligini bilgan mutasavvif uni har jihatdan himoya qilishga so‘fiy kishilarning kimligini anglashlariga yordam bergan. Abu Ishoq Kalobodiy qarashlari inson ma’naviyatini, ma’naviy olamini, ruhiy, aqliy manbalarini uyg‘otish, o‘zligini bilishga undashi bilan ahamiyatlidir. Undan tashqari, Artur Jon Arberri<sup>1</sup> “At-Ta’arruf” ga qilgan The Doctine of the

<sup>1</sup>Djon Artur Arberri (12-may 1905, Portsmut Angliya Gempshir grafligi – 2-oktabr 1969, Kembridj) nufuzli britaniyalik sharqbikfbshunos. Sermahsul arab, fors tili va Islomiy tadqiqotlar olimi. UPortsmut Grammatika Maktabi va Pembrouk Kolleji, Kembrijda tahsil olgan. Uning ingliz tiliga Qur‘onning tarjimasi, The Koran Interpreted, g‘ayrimusulmon olim tomonidan yozilgan eng mashhur tarjima bo‘lib, akademik doirada keng e’tirof qozongan. Djon Artur Arberri

(12-may 1905, Portsmut Angliya Gempshir grafligi – 2-oktabr 1969, Kembridj) nufuzli britaniyalik sharshunos. Sermahsul arab, fors tili va Islomiy tadqiqotlar olimi. UPortsmut Grammatika Maktabi va Pembrouk Kolleji, Kembrijda tahsil olgan. Uning ingliz tiliga Qur‘onning tarjimasi, The Koran Interpreted, g‘ayrimusulmon olim tomonidan yozilgan eng mashhur tarjima bo‘lib, akademik doirada keng e’tirof qozongan.

Sufis<sup>2</sup> nomli ingliz tilidagi tarjimasi muqaddimasida Kalobodiyning shuhrati “at-Ta’arruf” ustiga bino bo‘lgan deydi. Ushbu asar ta’lif etilishi ko‘p o‘tmay tasavvuf bo‘yicha qiymatli asar sifatida qabul qilindi va unga ko‘plab mo‘tabar olimlar tomonidan sharhlar bitildi. Darhaqiqat, ushbu asar arab tilida mukammal yozilgan uni har kim ham o‘qib anglay olmagan, ayniqsa, Buxoroda arab, fors tillarida turkiy tilda so‘zlashuvchilar ko‘plab yashaganligi bois uni turli tillarda sharhlashga zarurat paydo bo‘lgan.

Artur Djon Arberri kitob nomini, “e’tiqod”, “ta’limot”, “tariqat”, “aqida”, “madrasa”, “mazhab” ma’nolarini beruvchi “doctrune” so‘zini ishlatishni ma’qul topgan va quruq so‘zma-so‘z tarjimadan ko‘ra mohiyatga e’tibor qaratishni tanlagan. Qolaversa doctrine so‘zi kitobning asl nomidagi “mazhab” ma’nosini ham anglatadi, bu ham bizga Arberi kitob nomini tarjima qilishda naqadar muvaffaq bo‘lganini anglashga yordam beradi.

Zero kitob nomi o‘zbek tiliga “Tasavvuf ahlining mazhabini anglash” deb tarjima qilsak bo‘ladi. Inglizcha nomni esa The Doctrine of the Sufis – “Tasaffuv ahlining ta’limoti, mazhabi (ni anglash–tarjimon)” tarzida ma’no berishi mumkin.

Avvalroq, Misrdagi Qohira Universitetining Mumtoz Adabiyotlar Bo‘limi raisi, Arberri vataniga qaytgach Hindiston Ofisining Kutubhonasida assistent kutubxonachi bo‘lib ishladi. Urush davrida Liverpulda pochta-nazoratida xizmat qildi, sal o‘tmay London Universitetining Senati Uyida joylashgan Axborot Vazirligiga stajirovkaza yuborildi. 1944-47 yillarda Alberri London Universitetidagi Sharqshunoslik va Afrika Tadqiqotlari maktabining fors tillari kafedrasiga boshlig‘ etib tayinlandi. Keyinchalik Kembridj Universitetida unga Sir Tomas Adamning Arab tili Professori unvoni berildi, undan tashqari 1947-yili o‘zining Kembridjdagi Pembrouk Kollejida 1969-yilga dovr faxriy ustoz bo‘lib qoldi. U Buyuk Britaniya, Kembridjdagi Eseshn Perish qabristoniga rafiqasi (kelib chiqishi Ruminiyalik) Sarina Simon/Alberti (1900-1973) bilan dafn etilgan. U bilan ilk bor Qohirada uchrashib, keyinchalik 1932-yili Kembridjda turmush qurban.

Qolaversa, Alberti Rumiyning ijodini g‘arb ommasiga o‘zining saralangan tarjimalari orqali tanishtirgani va o‘rta asr Andalus arab she’riyatining antologiyasini tarjima qilish bilan alohida e’tiborga molik.

<sup>3</sup> ‘an-old ko‘makchi, o‘zbek tilida ajratish, bo‘lish ma’nolarini anglatadi. Bu erda Alloh bo‘laklardan iborat emasligi aytilmoqda.

<sup>4</sup> Ila-old ko‘makchi, o‘zbek tiliga “ga” ya’ni jo‘natish kelishigi qo‘sishchasini ifodalaydi. Bu yerda Allohnning intihosi, niyosasi yo‘qligiga ishora qilinmoqda.

<sup>5</sup> Fi-arab tilida makonni anglatuvchi olmosh. Bu yerda Allohnning makondan tashqarida ekanligi nazarda tutilgan..

Shu o‘rinda, falsafa tarixida o‘ziga xos tarzda borliqning birligini asoslashda tasavvufiy uslab Tavhid, yoki Vahdat masalasida ham Abu Ishoq Kalobodi merosi boshqa tasavvuf allomalar qarashlaridan farq qiladi. Abu Ishoq Kalobodi arab tilini juda mukammal bilgan mutasavvuf hisoblanadi. Shu jihatdan uning arab tili grammatikasidagi old qo‘sishchalaridan foydalanib Haqning yagonaligini ifodalovchi Tavhidga oid qarashlari diqqatga sazovor: Bu tavhid yoki Allohnning yagonaligini dalillovchi, borliqning birligini ifodalovchi tushunchalar. Bunda:

U ““an2<sup>3</sup> (عن) ya’ni “ga” muvofiq emas, “Unga” so‘zi “ila”(إلى)<sup>4</sup> yopishmaydi, “Fi”(في)<sup>5</sup> Unga mos kelmaydi. “Iz”(إذ)<sup>6</sup> Uni to‘xtatolmaydi. “In”(إن)<sup>7</sup> U bilan maslahatlasholmaydi. “Favqa”(فوق)<sup>8</sup> Unga soya sololmaydi, “Tahta” (تحت)<sup>9</sup> Uni ko‘tarolmaydi, “Haza” (هذا)<sup>10</sup> Unga muqobil bo‘laolmaydi, “Inda” (عند)<sup>11</sup> U bilan raqobatlasha olmaydi. “Xalfa” (خلف)<sup>12</sup> Uni ololmaydi, “Amam” (أمام)<sup>13</sup> Uni chegaralay olmaydi, “Qabl” (قبل)<sup>14</sup> Uni zohir qilolmaydi, “Ba’d” (بعد)<sup>15</sup> Uni foniq qilolmaydi, “Kull” (كل)<sup>16</sup>

<sup>6</sup> Iz-arab tilida zamонни anglatuvchi olmosh. Bu yerda Allohnning zamondan tashqari ekanligi aytilmoqda.

<sup>7</sup> In-o‘zbek tilida “agar”, arab tilida shubha, gumon ma’nolarini ifodalaydi. Bu erda Alloh har qanday shubha, gumondan xoli ekanligi nazarda tutilgan

<sup>8</sup> Favqa-o‘zbek tilida “ust”, “tepa” ma’nosini anglatadi. Bu yerda Allohdan yuqori narsa yo‘qligi aytilyapti.

<sup>9</sup> Tahta-o‘zbek tilida “ost”, “tag” ma’nosini anglatadi. Bu yerda Allohn biror narsa ko‘tarib turmasligi, U biror narsa ustiga turmasligi sifatlarnoqda..

<sup>10</sup> Hiza-o‘zbek tilida “qarshi”, “muqobil” ma’nosini ifodalaydi.

<sup>11</sup> Inda-o‘zbek tilida “huzurida,” “oldida”, “yaqinida”, “vaqtida”, kabi ma’nolarni anglatadi. Bundan tashqari “qarshilik ko‘rsatish” ma’nosini ham ifodalaydi. Bu erda Alloha raqobat qila oladigan narsalarning mavjud emasligi aytilmoqda.

<sup>12</sup> “Xalfa”-o‘zbek tilida “orqa tomon”, ma’nosini ifodalaydi. Bu yerda Allohnning orqasi bo‘lmasligi aytilyapti.

<sup>13</sup> “Amam”-o‘zbek tilida “Old tomon” ma’nosini ifodalaydi. Bu yerda Alloha old tomon yo‘qligi aytilyapti. .

<sup>14</sup> “Qabl”-o‘zbek tilida “ilgari” ma’nosini anglatadi. Bu yerda Allohnning ilgaridan bo‘lganligi, “ilgari” so‘zi ham ifodalab, tushuntirib berolmasligi aytilmoqda..

<sup>15</sup> “Ba’d” “keyin” so‘zi ham Allohn tushuntirib berishi mumkin emasligi aytilgan.

<sup>16</sup> Kull - “barcha”, “hamma” ma’nolarini beradi. Bu yerda mazkur so‘z bilan Allohn tushunib bo‘lmasligi nazarda tutilayapti.

Uni jamlay olmaydi, “Kana” (كان)<sup>17</sup> uni vujudga keltira olmaydi, “Laysa” (ليس)<sup>18</sup> Uni yo‘qotolmaydi. Demak, u shunday borliq-ki, uni tushuntirish yoki ayrib berish, tasavvur qilish bilan ham anglatib bo‘lmaydi. Uning yakka-yu yagonaligi qur’on ma’rifati orqali anglanishi maqsadga muvofiq.

Abu Bakr Kalobodiy Haqning birligini (tavxid)ni tasdiqllovchi to‘rtta uslubiy prinsiplarni ilgari surgan:

1. Haqni yaratilganlar anglay olishidan poklash va sifatlar o‘rtasidagi tenglikni tark etish.

2. Haqqa nisbatan sabab qo‘llamaslik, ya’ni Haq sababga ega emas. Chunki sababga ega narsa oqibatdir. Sabab esa oqibat yo‘qolishi bilan yo‘qoladi. Agar sabab abadiy bo‘lsa, oqibat ham abadiy bo‘lishi kerak.

3. Haqni farqlovchi va xayol qiluvchi deb o‘ylamaslik, chunki farqlash yaxshi va yomonni ajratishga zararni bartaraf qilib, foydaga erishishga muhtoj bo‘lganlar sifatidir.

4. Haqqa nisbatan o‘xshashlikni ikki ma’noda qo‘llamaslik birinchidan, Haq bandalar qiyosiga muhtoj emas, Haq yagona uning o‘xhashi yo‘q. Ikkinchidan, Haq o‘xshashiga muhtoj emas, chunki ma’lumni noma’lum bilan taqqoslash mumkin emas.

Yuqoridagi “at-Taarruf” dan keltirilgan fikrlarga e’tibor qaratilsa, Abu Bakr al-Kalobodiyning nafaqat tasavvuf ilmini chuqur idrok qila olishi balki, uning kalom ilmi masallaridagi salohiyatini ham ko‘rish mumkin. Shu nuqtai nazardan uning ushbu asarini qomusiy asrlar sirasiga kiritish mumkin.

Yuqorida aytganimizdek, allomaning tasavvuf va kalom, hadislар borasiagi fikrlaridan keyngi davrlarning buyuk ulamolari ham iqtiboslar keltirganlar. Xoja Muhammad Porso o‘zining “Faslul-xitob” deb nomlangan yirik asarida “Ta’arruf” kitobida: “Maqsud va mashhud mohiyatidan faqat ismlar va sifatlardan boshqa narsani ko‘rsata olmaydi. Qanday qilib mohiyatga etadi til gung bo‘ladi, deyiladi yoki Yana harchand oriflar va etuklar sifatlardan bilganlarini ko‘rsatsalarda, oqibatda bayon qila olmay qoladilar. Hazrati Ali (r.a.) dan rivoyat qilinadi: “Kim Robbiysini tanisa tili gung bo‘ladi degan fikrlarini

tahlil qilgan. Shuning uning “Bahrul-favoid” asarlaridagi fikrlarini ham keltiradi: “Shayx buzrukvor olim orif Abu Bakr ibn Ishoq al-Kalobodiy Buxoriy va boshqa katta mashoyixlar o‘zlarining ba’zi kitoblarida va risolalarida o‘tgan hakimlarning qiyin ba’zi so‘zlarini haqiqat arboblariga shar’i mutohharimizga muvofiq keltirishgan. U nima deyayotganiga qara, kim aytayotganiga qarama, hukmiga havola qilganlar. Yaxshisini ol, yomonini tashla ham shu qabildagi so‘zlardandir.

Abu Ishoq Kalobodiy merosiga baho berib, professor U.Uvatov Uning fiqh ilmi bo‘yicha saboqni mashhur shayx Muhammad ibn Fazldan, kalom ilmini esa, Buxorolik Abu Hafs al-Kabir al-Buxoriydan olib yuksak darajalarga erishganini e’tirof etadi. Olimning ma’lumotlariga ko‘ra, Abu Bakr Ishoq Kalobodiyning ilmiy-ma’naviy merosi haqida xabar bergan mualliflar uning qalamiga mansub besh yoki oltita asari bo‘lganligini zikr etilgan. Hozirgi ma’lumotlarga ko‘ra, ikki asari bizning davrimizgacha yetib kelgan ular “Bahrul favoid” (“Foydali ilmlar dengizi”) deb atalib, bu asar “Ma’oniy al-axbor” (xabar hadislarning ma’nolari) nomi bilan mashhur deb hisoblaydi. Uning ta’kidlashicha, Muhammad payg‘ambar a.s.ning odob-axloq va tarbiyaviy masalalarga oid 592 ta hadisni muxtasar sharhlar bilan keltirgan. Abu Bakr ishoq Kalobodiy o‘z ilmiy-faoliyatida hadislarga alohida ahamiyat bergen. Ba’zi mualliflarning qayd etishlaricha, Abu Bakr ishoq Kalobodiy hadis ilmining sultonni Imam Buxoriyning payg‘ambar Muhammad alayhissalomning ishonchli hadislarini o‘zida jamlagan “al-Jome’ as-Sahih” asariga ham sharh yozgan. Demak, Kalobodiyning bizgacha yetib kelgan ikki asaridan tashqari kitoblarini topish va keng jamoatchilikka yetkazish galadagi vazifalardan hisoblanadi.

Shu bilan birga U.Uvatov Abu Bakr Ishoq Kalobodiyning shox asari “At-taarruf” tasavvuf ilmiga bag‘ishlangan dastlabki arab tilida yozilgan manba deb, hisoblaydi. Islomiy tasavvufning ilk uch asrlik tarixini o‘rganishda muhim kitob ekanligini e’tirof qiladi. Uning fikriga ko‘ra, mazkur asar 1933 yilda ingliz olimi Artur Arberri tomonidan, 1960

<sup>17</sup> Kana - “bo‘lmoq” fe’li. Alloho ni bor bo‘lganligi va bo‘lishligini “bo‘lmoq” fe’li ifodalay olmasligi aytilyapti. Кана- “бўлмоқ” феъли.

<sup>18</sup> Laysa-“emas” fe’li. Yo‘qlik ma’nosini anglatadi.

yilda esa, Abdulhakim Mahmud Toho Abdulboqiy tomonidan ikkinchi bor Qohirada nashr ettirilgan. O'zbek ilm fanida dastlab Otaqul Mavlonqulov va Mavluda Otaqul qizi tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingani diqqatga sazovor.

**Talqin va natijalar:** Buxoroda hadis ilmi ham shahar ma'naviy-ma'rifiy hayoti bilan chambarchas bog'liq holda rivojlandi. Abu Abdullo Xoja G'unjori (vaf. 920 y.), Muhammad As-San'oni (vaf. 921 y.), Muhammad bin Ya'qub bin al-Horis Subazmuniy (vaf. 925 y.), Abu Bakr Fazl (vaf. 927 y.), Abu Ahmad Nabixon ibn Ishok Pasqoyiri (vafot 923), Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad Tavovisiy (vaf. 956 y.) kabi o'sha davrning yirik muhaddis, faqih, mutasavviflari ham Abu Bakr Kalobodiy yashagan davrida etishib chiqqanlarki, ularning boy ma'naviy merosi hali etaricha o'rganilmagan. Demak, yuqorida keltirgan hadis ilmi ahllarining har biri alohida tadqiqot ob'yekti bo'la oladi. Ularning ma'naviy merosi, ma'naviy axloqiy qarashlari yosh avlodni komil insonlar qilib tarbiyalshda muhim ahamiyat kasb etadi.

Abu Bakr Ishoq Kalobodiyning ma'naviy-axloqi, tasavvufiy qarashlari Iroq so'fiylik an'analari va g'oyalari ta'sirida ayniqsa, Mansur Halloj, Junayd Bag'dodiy, Abul Husayn an-Nuri, Sahl at-Tustari, Ibn Ato, Abu Sayid al-Xarroz, Zunnun Misriy, Abu Bakr al-Vositiy hamda Xuroson so'fiylik maktablarining tajribalari asosida shakllangan. Mutasavvif mazkur maktablar an'analarni Movarounnahrda o'zining yangi g'oyalari bilan boyitib rivojlantirdi. Ilk Renessans davrida tasavvuf ilmi yusalishiga ulkan hissa qo'shdi. Buxoroda yashab uning o'rta asrlardagi shuhratiga shuhrat qo'sha oldi.

Abu Bakr Ishoq Kalobodiyning serqirra olim ekanligi uning tasavvuf va hadis ilmiga oid o'ziga xos asarlari orqali bilish mumkin. Manbalarda Abu Bakr al-Kalobodiy so'fiy, faqih, usulchi, zohidlar qutbi, solihlar qutbi kabi sifatlar bilan tilga olinishi uning ilmi va ma'naviy yo'nalishini ko'rsatib turibdi. Olimning Hanafiy faqihlar orasida e'tirof etilishi ko'proq "Quttul-qulub" va "al Luma" asarlari kabi IV hijriy yilda tasavvufning tamalini qo'yishdagi o'rni bilan belgilansa, "at-Ta'arruf" dan tashqari "Bahrul favoid" asari bilan uning hadis olimlari orasidagi mavqeni aniqlash imkonini beradi. Uning hadis ilmidagi o'ziga xos jihatlari

hadislarning tasavvufiy mazmundagi sharhlari bilan bog'liqligidadir.

Abu Bakr Ishoq Kalobodiy tasavvufning uyg'onish davrida Murtai (vaf. 328/933), Rudboriy (vaf. 369/979), Nasrobodiy (vaf. 367/977), Ibn Xafif (vaf. 372/982), Shibliy (vaf. 334/945) kabi buyuk so'fiylarga zamondosh bo'lishi uning bu yo'nalishdagi faoliyatining rivojida ko'zga tashlanadi.

Abu Bakr Ishoq Kalobodiy fiqh, kalom, hadis va tasavvuf ilmlarini juda chuqur o'rgangan va mukammal asarlar yozgan nazariyotchi olimdir. Xoja Muhammad Porso (vaf. 822/1419) "Shayx orif, imom Abu Bakr Ishoq Kalobodiy mashoyixlarning buyuklaridan, zohidlarning qutblaridan bo'lib, ahli ilm orasida "Bahrul-favoid" nomi bilan mashhur "Ma'onil axbor" asarini ta'lif etgan va umrini oxirigacha zuhd, mujohada va riyozat bilan o'tkazdi. "At-Ta'arruf" asarini mukammal qilib solihlar qutbiga aylandi" -deb yozadi. "Faslul-xitob" asarida Porso ibratlri rivoyat keltiradi: "Shayx hazratlari odati bo'yicha biror kimsa bir kishining qusurini aysa, "bu xatodir" demas edi. "Bundan uning murodi nimaligini bilmadim" der ekan. Bu musulmonlikda komil iymon shartidir". Demak, uning xulq atvori dunyoqarashi, islam ilmlarini nafaqat o'rganishga bag'ishlangan hayoti balki, uning hayot tarzi butun faoliyati Qur'on, hadisga chambarchas bog'liqdir. Ilmni egallash unga amal qilish Abu Bakr Ishoq Kalobodiy hayot tarziga aylangan. Abu Bakr Ishoq Kalobodiy ulug' ustozlardan, yirik shayxlardan hadislar tinglagan, hadis ilmidan saboq olgan. Bahrul favoid asari orqali tasavvufni yanada rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Xususan, tasavvuf yo'lining hadislarga, hadis sohiblarining hayotiga qay darajada bog'liq bo'lganligi asarda aks etishi buning dalilidir. Abdulla Lakanviy Abu Bakr Ishoq Kalobodiyning Muhammad bin Fazl Abu Bakr al-Fadl al-Kamari al-Buxoriydan (vaf. 381/991) fiqh ilmidan saboq olganini, Hadis ilmini Abu Nasr Rashodiy (vaf. 339/951) dan o'rganganini ta'kidlagan. Shuningdek, Muhammad Hulmaniyyadan Kufada, Abu Ja'far Muhammad bin Meharahdan Rayda, Yahyo bin Solih as-Sahldan Misrda hadis eshitganligi manbalarda keltiriladi.

Abu Bakr Ishoq Kalobodiy "at-Ta'arruf"da so'fiylarning aqidasini o'rtaga qo'ygan bo'lsa, "Bahrul-favoid" da ya'ni "ma'onil axbor"da aqoid masalalari sunniy kalom aqidasiga bog'liq bo'lgan

so‘fiylarning hadislar sharhidagi izlanishlaridagi usullarini o‘rtaga qo‘yadi. U bu asarda muhaddis so‘fiy kimligini ko‘rsatib beradi. “Bahrul-favoid” uning hadis ilmidagi mufassal ishlarining boshi hisoblandi. Abu Bakr Ishoq Kalobodiy yuzga yaqin ustolar, shayxlar sanadli naqllardan turli masalalarga oid 223 ta hadisni sharh qilib, tasavvufiy, axloqiy izohlar, o‘ziga xos sharhlar bilan o‘ziga xos tarzda ifodalaydi. Bahrul-favoid sharhlarida hadislar jumla-jumla qilib olinib, unda hadisning bir bo‘limi keyin boshqa bo‘limiga o‘tiladi. Mazkur asarda hadislar sharhida Tavhid, Allohnning sifatlari, gunohi kabiralar, inson fe’lining yaratilishi kabi farqli kalom masalalari tahlil etilgan. Bu masalani u “At-ta’arruf” da ham tahlil etgan.

Abu Bakr ishoq Kalobodiy faqih sifatida usulchi sifatidagi faoliyati haqida ma’lumotlar manbalarda uchraydi. Uning bu sohadagi izlanishlarini “Ma’onil axbor” asarida ham kuzatish mumkin. Unda alloma fiqhiy masalalarga e’tibor qaratadi. Shu jihatda hadislar sharhida izohlarida axloqiy masalalarни alohida ko‘rib chiqadi. Abu Bakr Ishoq Kalobodiy “At-Ta’arrufda” turli masalalar yechimida she’rlardan foydalanadi. Bu holatni Bahrul-favoidda ham ko‘rish mumkin. Bunda hadislar sharhlarining oxirida masalalarga oid she’rlar keltiradi. Uning asarlarida matn ichida masalalar yechimida she’rlardan foydalanishi o‘ziga xosliklardan biri sifatida aytish mumkin.

Abu Bakr Ishoq Kalobodiy ilm va ma’rifat markazi bo‘lgan Buxoroda ilmgaga bo‘lgan qiziqishi va muhabbatni uning ilm yo‘lidagi xizmatlari uni shu darajaga olib chiqqan. Abu Bakr Ishoq Kalobodiyning tasavvufni tushunish uni anglashda Qur’on va Sunnadan ajratmaslik g‘oyasi, uning hadis ilmidagi tajribalariga o‘tgan deyish mumkin. Abu Bakr Ishoq Kalobodiyning ikkita shoh asari “at-Taarruf limazhabi ahl at-tasavvuf” hamda “Bahr

al-favoid” asarlarining o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarini qiyosiy tahlil qilishida quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq. Avvalo, muallif har ikki kitobni yozish yoki jamlashda nimani maqsad qilganligiga e’tibor qaratib uning tasavvuf va hadis ilmidagi qarashlari o‘ziga xususiyatlarini bilish mumkin. Chunki, uning ma’naviy-axloqiy qarashlari ushbu asarlarida yorqin namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, kitobning mavzusi nimaga yo‘naltirilgani, muallifning dunyoqarashi, e’tiqodi, fiqhiy mazhabi va ruhiy kechinmalari kitoblardan qanday iz qoldirgan degan savolga javob topish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абу Бакр Калободий. Ат-таъарруф. Тарж. О.Мавлонкулов. М.Мавлонкулова. Тошкент: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002.-В.3.
2. لمذهب أهل التصوف. أبو بكر كالاباذى. تعليق عليه أحمد .1992
3. [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Arthur\\_John\\_Arberry](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Arthur_John_Arberry) Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Под редакцией С.М.Прозорова. Том I, –177 стр.
4. Абу Бакр Калободий Ат-таъарруф. Тарж. Отакул Мавлонкул ўғли ва Мавлуда Отакул қизи. Т. F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти . 2002 –Б.114.
5. Уватов У. Тасаввуф тарихига доир муҳим манба. //Абдухолик Фиждувоний ва тасаввуф. Илмий конференция маъruzalari тезислари. Тошкент: 2003. -Б.36-37.